



Comparative methods of researching phraseologisms in the translation process

Azimjon AKHMEDOV ¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2025
Received in revised form
10 August 2025
Accepted 25 August 2025
Available online
15 September 2025

Keywords:

phraseological units,
comparative analysis,
semantic method,
structural method,
cognitive approach,
cross-cultural analysis,
translation studies,
linguoculturology,
discourse analysis.

ABSTRACT

The comparative study methods of phraseological units hold a special place in linguistics. These methods examine idioms, proverbs, set expressions, and other fixed combinations across languages, identifying their semantic, structural, and pragmatic features. Through comparative analysis, both universal patterns and national-cultural peculiarities of phraseological units are revealed. The main methods include semantic analysis, structural-comparative analysis, cognitive-metaphorical approach, translation and cross-cultural analysis, as well as discursive-contextual analysis. These approaches are significant not only for the theoretical development of phraseology but also for translation studies, linguoculturology, and cognitive linguistics.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss7/S-pp34-39>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tarjima jarayonida frazeologizmlarni tadqiq qilishning qiyosiy metodlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

frazeologik birliklar,
chog'ishtirma tahlil,
semantik metod,
struktural metod,
kognitiv yondashuv,
madaniyatlararo tahlil,
tarjimashunoslik,
lingvokulturologiya,
diskursiv tahlil.

Frazeologik birliklarni chog'ishtirma tadqiq qilish metodlari tilshunoslikda alohida o'rin tutadi. Bu metodlar turli tillardagi idiomalar, maqollar, iboralar va boshqa barqaror so'z birikmalarini o'rganib, ularning semantik, struktur va pragmatik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Chog'ishtirma yondashuv orqali frazeologik birliklarning umumiyliklari va milliy-madaniy o'ziga xosliklari ochib beriladi. Metodlar orasida semantik tahlil, struktural-qiyosiy tahlil, kognitiv-metaforik yondashuv, tarjima va madaniyatlararo tahlil, shuningdek diskursiv-kontekstual tahlil asosiy o'rin egallaydi. Bu yondashuvlar nafaqat frazeologiyaning nazariy rivojiga, balki

¹ Teacher, Department of Guided Touring, Intercultural Communication and Translation Studies, Andijan State Institute of Foreign Languages

tarjimashunoslik, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikda
ham muhim ilmiy asos yaratadi.

Сопоставительные методы исследования фразеологизмов в процессе перевода

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

фразеологические
единицы,
сопоставительный анализ,
семантический метод,
структурный метод,
когнитивный подход,
межкультурный анализ,
переводоведение,
лингвокультурология,
дискурсивный анализ.

Методы сопоставительного исследования фразеологических единиц занимают особое место в языкознании. Данные методы направлены на изучение идиом, пословиц, устойчивых выражений и других словосочетаний в разных языках, что позволяет выявить их семантические, структурные и прагматические особенности. Сопоставительный анализ раскрывает как универсальные черты фразеологических единиц, так и их национально-культурную специфику. Основные методы включают семантический анализ, структурно-сопоставительный анализ, когнитивно-метафорический подход, перевод и межкультурный анализ, а также дискурсивно-контекстуальный анализ. Эти подходы имеют важное значение не только для теоретического развития фразеологии, но и для переводоведения, лингвокультурологии и когнитивной лингвистики

Bundan tashqari frazeologik birliklarni o'rganish usullari ham mavjud va ular quyidagilar;

1. Tasvirlash va tavsiflash usuli:

Frazeologik birliklarni hujjatlashtirish va tavsiflash ko'pincha turli tillarni o'z ichiga olgan lug'atlar yoki ma'lumotlar bazalarini yaratishiga olib keladi va har bir tilni tub mohiyatigacha anglab yetishni osonlashtiradi. Shuningdek, idioma, birikma va boshqa turg'un iboralarni o'z ichiga olgan frazeologik birliklar kontekstida bu iboralarni jamlash, ma'nolarini tavsiflash va qo'llanilishiga misollar keltirishni o'z ichiga oladi.

1. "Dog Days" so'zma – so'z tarjimada (It kunlari) degan ma'noni ifoda etsada, aslida "Yilning eng issiq davri" deb ta'rif beriladi. Misol tariqasida, "We try to stay indoors during the dog days of summer." (Biz yozning eng issiq kunlarida uyda qolishga harakat qilamiz.)

2. "Dog-Eat-Dog" so'zma –so'z tarjimada (It itni yeydi) degan ma'noni ifoda etsada, aslida "Shafqatsiz raqobat" aks etgan vaziyatni anglatadi. Misol tariqasida, "In the corporate world, it's often dog-eat-dog." (Shafqatsiz raqobat -sherikchilik olamida tez-tez uchrab turadigan holat.)

3. "Let the Cat Out of the Bag", so'zma –so'z tarjimada (Mushukni sumkadan chiqaring) degan ma'noni ifoda etsada, iste'lohda "Beixtiyor sirni oshkor qilish" deb ishlatiladi. Misol tariqasida, "She let the cat out of the bag about their engagement." (U mushukni unashtirilgani haqidagi sirni beixtiyor oshkor qilib qo'ydi.)

4. "Beat a Dead Horse", so'zma – so'z tarjimada (O'lik otni urmoq) degan ma'noni ifoda etsada, iste'lohda "E'tiborni unchalik dolzarb bo'lmagan yoki hal qilinib bo'lgan muammoga qaratishda davom etish." deb ishlatiladi. Misol tariqasida, "We've already

discussed this matter; there's no need to beat a dead horse.” (Biz bu masalani allaqachon muhokama qildik; Bu muammoga qaytishga ortiqcha hojat yo'q.)

2. Qiyosiy usulda tahlil qilish:

Ekvivalentlikni ya'ni o'xshashlik, qisman ekvivalentlik va umuman o'xshashi bo'lmagan noaniqliklarni aniqlash uchun turli tillardagi frazeologik birliklarni tizimli ravishda bir-biri bilan solishtirib, o'rganib chiqish.

Umumiy ilmiy qarashlar

- **Frazeologiya va qiyosiy yondashuv** – J. Woźniak (2025) frazeologiyaning kognitiv lingvistika bilan bog'lanishini ko'rsatadi va maqollarni qiyosiy tahlil qilish xalqaro tadqiqotlarda asosiy yo'nalishga aylanganini ta'kidlaydi [Woźniak, 2025].
- **Tarjima va gender qarashlari** – M. Mahmoud (2025) Qur'on tarjimalaridagi iboralarni tahlil qilib, erkak va ayol tarjimonlar orasidagi farqlarni qiyosiy usulda ko'rsatadi [Mahmoud, 2025].
- **Kognitiv-metaforik asoslar** – Sadia Belkhir (2024) maqollarni kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan qiyosiy o'rgangan va bu jarayonda metafora va konseptual tuzilmalarni tahlil qilgan [Belkhir, 2024].
- **Frazeologizmlarning tarixiy qiyosi** – L. Tó Beagáin (2024) Kant davridan boshlab lingvistika tarixida qiyosiy metodning shakllanishini ko'rsatadi [Beagáin, 2024].
- **Madaniyatlararo tahlil** – P. Mehrsereshtan va hamkorlari (2025) fors va arab onomatopoeik iboralarini qiyoslab, fonetik va semantik yaqinliklarni tahlil qiladi [Mehrsereshtan et al., 2025].
- **Frazeologizmlar va diniy matnlar** – M. Pichan va N. Nilsaz (2025) Qur'on tafsiridagi iboralarni qiyosiy tahlil qilish orqali diniy tilning frazeologik xususiyatlarini ochib beradi [Pichan & Nilsaz, 2025].
- **Narrativ va frazeologik unsurlar** – A. Moradi va boshqalar (2025) badiiy matnlardagi shubha va ishonchsizlikni ifodalovchi iboralarni qiyosiy usulda o'rganadi [Moradi et al., 2025].
- **Falsafiy-lisoniy qiyos** – M. Shokri Foumeshi (2024) qadimgi manbalardagi diniy iboralarni qiyoslab, ularning semantik o'zgarishini ko'rsatadi [Foumeshi, 2024].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, frazeologiyada qiyosiy metod turli yo'nalishlarda – kognitiv lingvistika, tarjima nazariyasi, madaniyatshunoslik va diniy tilshunoslikda keng qo'llanilmoqda. G'arb olimlari ko'proq kognitiv va metaforik yondashuvlarga urg'u berishsa, sharq olimlari diniy matnlar va madaniyatlararo tahlilga e'tibor qaratishmoqda.

3. Korpus (to'plam) lingvistikasi:

Korpus katta hajmli va tizimga solingan matnlar to'plamidan iborat til manbasi hisoblanadi. Korpus tilshunosligida ular ma'lum bir til doirasida yoki tilning ma'lum bo'limida statistik tahlillarni amalga oshirish, qarashlarni, tildagi hodisalar yoki nazariy qoidalarni tekshirish uchun foydalaniladi. Shundan ma'lum bo'ladiki, korpus ya'ni to'plam lingvistikasida FBlarning takrorlanishi va qo'llanilishi, tarqalishi va kontekstini tahlil qilish amalga oshiriladi. Agar biz zoonim frazeologik birliklardan “it”, “mushuk” va “ot” ishtirokidagi frazeologik birliklarni (masalan, idioma va so'z birikmalarini) tekshirganda, korpus lingvistikasi bizga bu iboralarning turli kontekstlarda qanday qo'llanishini ko'rish imkonini beradi.

Frazeologik birlik sifatida “Let sleeping dogs lie” iborasini oladigan bo'lsak, “Ayni vaqtda tinch bo'lib turgan vaziyatga aralashishdan saqlanish” ni anglatadi. Bu ibora tez-tez mojarolardan qochish haqida munozaralarda paydo bo'ladi. Aksariyat holatlarda maslahat

yoki biror bir narsani aks ettiruvchi kontekstlardan topiladi, va birovlarini osuda hayotiga aralashmaslik donolik bilan ish yuritishlik ekanligini ta'kidlaydi. Korpus tilshunosligi hodisasiga ko'ra, bu ibora Britaniya Milliy Korpusi (British National Corpus (BNC)) va Zamonaviy Amerika Ingliz Korpusida (Corpus of Contemporary American English (COCA)) tez-tez uchraydi. Misolni biz (COCA) dan olib ko'rsak; "You should let sleeping dogs lie and not bring up past arguments." (Ayni vaqtda tinch bo'lib turgan vaziyatga aralashmasligingiz va o'tmishdagi bahsli dalillarni yuzaga olib chiqmasligingiz kerak.

Navbatdagi frazeologik birlik sifatida ko'pchilik ingliz tilini biladigan insonlarga ma'lum bo'lgan ibora "Raining cats and dogs" iborasini oladigan bo'lsak, "Juda kuchli yomg'ir yog'moqda" ni anglatadi. Odatda ingliz va amerikacha ingliz tillari variantlarida, ayniqsa hikoya va tavsif kontekstlarida uchraydi. Odatda ob-havo hisobotlarida, hikoyalar aytib berishda va kuchli yomg'irni tasvirlash uchun norasmiy suhbatlarda foydalaniladi. Korpus tilshunosligi hodisasiga ko'ra, bu ibora ham Britaniya Milliy Korpusi (British National Corpus (BNC)) va Zamonaviy Amerika Ingliz Korpusida (Corpus of Contemporary American English (COCA)) kuchli asoslangan holatda ko'p foydalaniladi va buning sababi, ushbu mintaqalarning ob-havo sharoiti hisoblanadi. Bu safar misolni biz (BNC) dan olib ko'rsak; "It was raining cats and dogs, so we decided to stay indoors." (Juda ham kuchli yomg'ir yog'ayotgan edi, shuning uchun biz uyda qolishga qaror qildik.)

Uchinchi frazeologik birlik sifatida "ot" zoonim komponentli birikma "Horse of a different color" sini oladigan bo'lsak, "Yuqorida aytib o'tilganlardan butunlay farq qiladigan vaziyat yoki muammo" degan ma'noni anglatadi. Yuqoridagi ikkita FB larga qaraganda kamroq, ammo ingliz tilining yozma va og'zaki turli xil shakllarida mavjud va qarama-qarshi fikr yoki vaziyatni boshqalarga anglatish uchun ishlatiladi, ko'pincha farqlash yoki tushuntirishni talab qiladigan muhokamalarda uchraydi. Korpus tilshunosligi hodisasiga ko'ra, Bu ibora Zamonaviy Amerika Ingliz Korpusida (Corpus of Contemporary American English (COCA)) da topilgan va sezilarli farq yoki tafovutni bildirish uchun ishlatiladi. Bu safar misolni biz (COCA) dan olib ko'rsak; "We were discussing politics, but her comment was a horse of a different color." (Biz siyosatni muhokama qildik, lekin uning sharhi yuqorida aytib o'tilganlardan butunlay farq qilar edi.)

4. Sohaga oid tadqiqotlari va so'rovnomalar o'tkazish:

Ona tilida so'zlashuvchilar orasida FB lardan foydalanish va idrok etishni tushunish uchun intervyular, so'rovnomalar va tadqiqot ishlarini olib borish orqali ma'lumotlar to'plashni yo'lga qo'yadi. Ushbu uslub jahon ta'lim tizimida juda katta ahamiyatga ega keng miqyosda qo'llaniladi. Frazeologik birliklarni o'rganishda sohalarga oid tadqiqotlar bu iboralarning kundalik nutqda, mintaqaviy o'zgarishlarda va madaniy sharoitda qo'llanishi haqida ma'lumot beradi.

A) Frazeologik birlik: "Every dog has its day"

So'rovnoma savoli: "Every dog has its day" iborasini eshitganmisiz? Bu siz uchun nimani anglatadi?

Umumiy javob: "Bu degani, har bir kishi hayotining bir nuqtasida albatta muvaffaqiyatga erishish yoki baxtli bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi."

Soha kuzatuv: Tez-tez kimnidir rag'batlantirib turish yoki sabr-toqatli bo'lishga undash uchun ishlatiladi.

B) Frazeologik birlik: "A cat has nine lives"

So'rov savoli: "A cat has nine lives" iborasi haqida nimani tushunasiz? Insonlar bilan suhbat jarayonida uni ishlatganmisiz yoki eshitganmisiz?

Umumiy javob: “Bu mushuklar xavfli vaziyatlardan qochib qutulayotganiga o‘xshaydi yoki kimdir juda omadli shaxs ekanligini anglatadi.”

Soha kuzatuv: Odatda qayta-qayta zarardan qochadigan odamni tasvirlash uchun ishlatiladi.

C) Frazelogik birlik: “Don't look a gift horse in the mouth”

So'rov savoli: Siz “Don't look a gift horse in the mouth” degan gapni eshitganmisiz? Bu nimani anglatadi?”

Umumiy javob: “Bu biror bir sovg‘aga noshukur bo‘lmaslik yoki uni tanqid qilmaslikni anglatadi”.

Soha kuzatuv: Ko‘pincha kimgadir olgan narsalarini qadrlashini eslatish uchun ishlatiladi.

5. Kognitiv lingvistika:

Kognitiv lingvistikada ko‘pincha metafora va konseptual uyg‘unlashish nazariyalaridan foydalangan holda, inson ongi tomonidan FBlarni qanday qayta ishlanishi va tushunilishini o‘rganish mumkin bo‘ladi. Kognitiv lingvistika til va ong o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi, til bizning aqliy jarayonlarimizni qanday aks ettirishi va shakllantirishiga e‘tibor beradi.

A) Frazelogik birlik: “It's a dog's life”

Nazariy metafora (o‘xshatish): Bu- it hayoti (qiyin yoki yoqimsiz hayotni nazarda tutadi)

Kognitiv (aqliy) tushuntirish: Bu ibora itning hayoti qiyin yoki mashaqqatli deb qabul qilinadigan ruhiy va aqliy vaziyatdan kelib chiqadi. Bu ibora ko‘pincha qiyin sharoitlarda yashaydigan itlar haqidagi madaniy tushunchamizdan foydalanadi.

Misol: “He’s always complaining about his job; he says it’s a dog’s life.” (U har doim o‘z ishi haqida shikoyat qiladi; u qiyin yoki yoqimsiz hayot ekanligini aytadi.)

B) Frazelogik birlik: “Let the cat out of the bag”

Nazariy metafora (o‘xshatish): sirlar maxsus idishdagi obyektlardir.

Kognitiv (aqliy) tushuntirish: Bu ibora tasodifiy yoki qasddan maxsus joydan (sumkadan) chiqarilishi mumkin bo‘lgan yashirin obyektlar sirlari metaforasidan foydalanadi. Aqliy vaziyat sirni oshkor qilishning tasodifan va kutilmagan oqibatlarini o‘z ichiga oladi.

Misol: “She let the cat out of the bag about the surprise party”, (U kutilmagan ziyofat haqidagi xabarni oshkor qilib yubordi.)

C) Frazelogik birlik: “Put the cart before the horse”

Nazariy metafora (o‘xshatish): tartib – ketma-ket bo‘lgan jarayon.

Kognitiv (aqliy) tushuntirish: Bu ibora harakatlarning to‘g‘ri deb hisoblangan ketma-ketligi buzilgan, samarasiz yoki bema‘nilikka olib keladigan aqliy vaziyatni keltirib chaqiradi. Metafora mantiqiy tartibga rioya qilish muhimligini ta‘kidlaydi, chunki ot tabiiy ravishda aravani tortib yurishi kerak bo‘ladi, aksincha emas.

Misol: “Starting the project without planning is like putting the cart before the horse.” (Loyihani rejalashtirmasdan turib boshlash, to‘g‘ri deb hisoblangan ketma-ketligi buzilgan ishga o‘xshaydi.)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Phraseology: An Interdisciplinary Perspective” edited by Sylviane Granger and Fanny Meunier, 2008

2. “Phraseology: Theory, Analysis, and Applications” by A.P. Cowie, 1998
3. “Idioms: Structural and Psychological Perspectives” edited by Martin Everaert, Erik-Jan van der Linden, André Schenk, and Rob Schreuder, 1995
4. “Cognitive Linguistics and Lexical Change: Motion Verbs from Latin to Romance” Nathalie Gerhard, 2021
5. “Phraseology in Multilingual Society” edited by Margarita Goded Rambaud, 2018
6. Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. (1998). “Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use”. Cambridge University Press.
7. Gläser, R. (1998). “The Stylistic Potential of Phraseological Units in the Light of Genre Analysis”. University of Leipzig.
8. Cowie, A. P. (1998). “Phraseology: Theory, Analysis, and Applications”. Oxford University Press.
9. Moon, R. (1998). “Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach”. Oxford University Press
10. Sinclair, J. (1991). “Corpus, Concordance, Collocation”. Oxford University Press.
11. McEnery, T., & Hardie, A. (2011). “Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice”. Cambridge University Press.
12. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
13. Kövecses, Z. (2002). *Metaphor: A Practical Introduction*. Oxford University Press.
14. Langacker, R. W. (1987). *Foundations of Cognitive Grammar: Theoretical Prerequisites*. Stanford University Press.